

TIL TAQDIRI – MILLAT TAQDIRI

Xolmuradova Jamila Irmetovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, f.f.n.

jamilaxalmuratova66@mail.ru

Ergashova Zilola Abdurashidovna

TAFU 3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘z ona tili sirlarini o‘rganish, o‘z fikrini bayon qilish jarayonida har bir til vositasini kerakli va lozim bo‘lgan o‘rinda qo‘llash, mantiqan barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis, umuman, har qanday madaniyatli kishi uchun hayotiy zaruriyat hisoblanishi kerakligi, jumladan mamlakatimizda yashayotgan o‘zga tilli millat vakillari ham Davlat tilini o‘rganishlari zaruriyatlari haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: til, ona tili, o‘zbek tili, Davlat tili, millat, tilshunoslik, qadriyat, lisoniy, nutqiy, muloqot.

Mamlakatimizda demokratiya qurish jarayoni xorijiy tillarni yanada kengroq va chuqurroq o‘rganish zaruriyat ekanligini isbotladi. Zero, har bir sohani dunyo miqyosida rivojlantirishnm xam xorijiy tilda tushunish, fikrlash orqali amalga oshiriladi. Mamlakatimizda bu borada keng imkoniyatlar yaratib berilganligi so‘zimizning dalilidir.

Har bir til – ma’lum bir millatning ko‘zgusi hisoblanadi, uning mavqeini belgilaydi. Shu ma’noda o‘zbek tilimiz jamiyatimiz, madaniyatimiz taraqqiyoti, millatimiz ma’naviy kamolotining muhim belgisidair. Mamlakatimizda ma’naviy – ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb e’lon qilingan. Bugungi kunda tilshunoslik masalalari, xususan o‘zbek tilini o‘rganish va o‘rgatish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, respublikamizning “Davlat tili” haqidagi hamda “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Prezidentimizning 21.10.2020 dagi PF-6084-son

“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va qator me‘yoriy hujjatlarida ma‘naviy – ma‘rifiy tarbiya hamda til masalalariga” alohida e‘tibor berilgan. Har bir qadr eng, eng avvalo, o‘z ona tilining chinakam sohibi bo‘lmog‘i lozim. Prezidentimiz “Biz xalqimizning taqdiri, ertangi kuni haqida o‘ylar ekanmiz, eng avvalo, millatimizning asl fazilatlarini, go‘zal urf-odatlarimiz, betakror san‘atimiz va adabiyotimizni, ona tilimizni ko‘z qorachig‘iday saqlashimiz zarur,”- deb ta‘kidlaydi.(Sh.M. Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 21.10.2019).

Til ham fe‘l –atvor, odamga qon bilan kirib, uning butun jismi joniga tarqalib ketuvchi an‘ana sanalar ekan, bularga e‘tibor bermaslik katta yo‘qotishlarni, fojialarni keltirib chiqarishi ehtimoldan holi emas.

Shu ma‘noda nofilologik, xususan, texnika yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida tilshunoslik fanlarining o‘rni va roli qay darajada bo‘lishi kerakligini aniqlash va uni amalga oshirish vazifasi o‘zini ona tili - jonkuyari, deb hisoblovchi har bir kishining milliy burchidir. O‘z ona tili sirlarini o‘rganish, o‘z fikrini bayon qilish jarayonida har bir til vositasini kerakli va lozim bo‘lgan o‘rinda qo‘llash, mantiqan barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis, umuman, har qanday madaniyatli kishi uchun hayotiy zaruriyat hisoblanishi kerak.

Oliy ta‘lim muassasalarida milliy qadriyatlarimizni til orqali shakllantirmasdan masalaga yuzaki yondoshsak talabalarning bu fanga bo‘lgan qiziqishlari talab darajasida bo‘lmay qolish ehtimoli yuzaga kelmasmikan? Nega davlat tilimizni talabalarga o‘rgatish hozirgi kunda qiyinchiliklarni keltirib chiqarayapti? Chunki, talabaning o‘rta ta‘limda olgan bilimlari talab darajasida emas, sababi bugungi kun o‘quvchisi oliy o‘quv yurtiga – ma‘lum bir sohaga yo‘naltirilgan fanlarni o‘zlashtiribgina kelayaptilar. Oqibatda qabul qilingan talaba o‘zbek tilining tuzilishi, adabiy til va adabiy grammatikasini bilmaydi, o‘gzaki va yozma nutqlari, ijtimoiy fikrlash qobiliyatlari, mushohada yuritishi sust ekanligi sezilib qolayapti. Bu hol o‘z navbatida talabalarning lisoniy (til) hamda nutqiy

(og‘zaki so‘zlash savodxonligining) pasayishiga sabab bo‘lgani holda, yetishtirib chiqarayotgan kadrlarimizning muomala, ish yuritish, hatto oddiy muloqot madaniyatining yuzakilashib borishiga sabab bo‘layotgani hech kimga sir emas.

Til ilmi bilan bo‘g‘liq bugungi muammolar yana quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

- tilni oddiy, jo‘n narsa. Uni hamma biladi-ku, deb yondoshish odat tusiga kirib borayapti, vaholanki, til eng murakkab va ko‘p qirrali hodisadir;
- texnika taraqqiyoti tufayli qo‘lda yozish ishlari kamayib borayapti, oqibatda kishilarning yozuv savodxonligi ham pasaymoqda;
- hozirgi paytda ikki alifbo lotin hamda kirill harflaridan foydalanayotganimiz ham kishilarning xat –savodiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatayapti;
- ko‘pgina sohalarda, chunonchi, nofilologik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarida rusiyzabon guruhlarga “O‘zbek tili” fanidan dars soatining kam qo‘yilganligi yoki milliy guruhlarda bu fan umuman o‘tilmasligi ham chigalliklarni keltirib chiqarmoqda.

Shu o‘rinda yana bir holatga e’tibor qaratish joizki, nomilliy guruhlarda ta’lim olayotgan rusiyzabon talabalar o‘zbek tilida muloqotga kirishish uchun ehtiyoj sezmayaptilar, chunki ona tilisi o‘zbek bo‘lgan talabalar ham bilsa – bilmasa ular bilan rus tilida muloqotga kirishadilar. Biz buni salbiy holat deya baholashdan yiroqmiz, ammo rusiyzabon talabalar ham Davlat tilida fikrini ifodalay olsalar nur ustiga nur bo‘lar edi.

Hozirgi kunda yosh mutaxassis qanday sohada mehnat qilishdan qa’tiy nazar, o‘z kasbini chuqur egallashi bilan birga o‘z ona tilini, o‘z tarixini, urf-odatlarini, qadriyatlarini yaxshi o‘zlashtirgan, omma bilan yaqin aloqada bo‘la oladigan ziyoli, oli, adib, muallim, jamoat arbobi bo‘lishiga mening ona tilim – O‘ZBEK, men O‘ZBEK, farzandiman deb g‘urur va iftixor bilan yashashiga erishish zarur. Ta’kidlash zarurki, o‘zini, o‘z elini, o‘z tilini qadrlagan kishini, yurtini, boshqa yurt ham, til ham qadrlaydi.

So‘zimizning muxtasarini ushbu to‘rtlik bilan yakunlashni ma’qul topdik:

*Men bugun madh etay, o'zbek tilimni,
Ona tilim axir, onamdek suyuk.
Garchi jahon minbaridan yangramasa ham,
O'zbek tilim mening muqaddas, buyuk.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M. Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 21.10.2019
2. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent, 2000.
3. Mahmudov N. va bosh. Ish yuritish asoslari. – Toshkent: O'zME davlat ilmiy nashriyoti, 2006.